

## TILSHUNOSLIKDA INTERVYU PUBLISTIK JANR SIFATIDA VA INTERVYU TURLARI

*Jabborova Zarnigor Maxmudjon qizi*

*ADCHTI Ingliz tili amaliyoti kafedrasida tayanch doktoranti*

*E-mail: [zarnigorjabborova06@gmail.com](mailto:zarnigorjabborova06@gmail.com)*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada ommaviy kommunikatsiyaning jadal rivojlanayotgan shakllaridan biri publistika haqida, publistika janriga kiruvchi intervyu va intervyu turlari o'rganiladi. Shuningdek, maqolada bir qancha tilshunos olimlar tomonidan "intervyu" tushunchasiga bergan fikrlari va mulohazalari berib o'tiladi. Bundan tashqari bir necha turdagi intervyu klassifikatsiyalari izohlari bilan to'liq yoritib beriladi.*

***Kalit so'zlar:** publistik uslub, intervyu, diologik nutq, diologik muloqat, kanonik turlari, lisoniy birlik, informatsion, analitik va tahliliy intervyu.*

### **KIRISH**

Publistika lotincha "ijtimoiy, jamiyatga aloqador" degan ma'noni anglatadi va ko'pgina manbalarda ijtimoiy, siyosiy masalalarni yoritib beruvchi adabiy ijodning turi sifatida ta'riflanadi. Publitsistika shu zamon voqea va hodisalaridan shu zamon kishilarni xabardor qilish, shu kun uchun zarur masala va muammolarni tahlil etish va ularning yechilishi borasida jamiyatga ta'sir ko'rsatish vositasidir[1]. Publistik uslub XVIII- asr o'rtalarida alohida uslub sifatida namoyon bo'la boshladi. Publistik uslubning alohida uslub sifatida ajratib turuvchi xususiyati jamoatchilik fikriga chuqur va doimiy ta'sir o'tkazish, berilgan ma'lumotni ta'lqin qilingan yagona to'g'ri izoh sifatida ishonitirishdan iboratdir. Publistika janri sifatida intervyu ommaviy axborot vositalarida keng qo'llanadi. Qo'llanish doira ko'lamining kengligi tufayli jurnalistika sohasidagi diologik nutqlarning barchasi intervyu janri asosida olib boriladi. Publistik uslub uchta janr guruhiga ajratiladi:

- 1) axboriy: eslatma, hisobot, intervyu, hisobot;
- 2) tahliliy: suhbat, maqola, yozishmalar, taqriz, sharh;
- 3) badiiy va publitsistik: insho, eskiz, felyeton, risola[2].

**Birinchi turda** - informatsion intervyu - axborotlashtirish strategiyasi o'z zimmasiga oladi, bu suhbat oxirida fikrni ifodalash strategiyasi bilan almashtiriladi.

**Ikkinchi turdagi** – analitik suhbatda – fikr bildirish strategiyasi ustunlik qiladi. Ushbu tur odatda fikr strategiyasidan oldin bo'lgan ba'zi faktik ma'lumotlarga asoslanadi.

Axborot-tahliliy intervyuning **uchinchi turi** aralash tip bo'lib, ikki "sof" tur o'rtasida oraliq o'rinni egallaydi. Suhbatning bu turi maqsadlarning har uchasi asosida bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan klassifikatsiyadan anglash mumkinki, intervyu axboriy janrlar sarasiga kiradi va asosiy funksiyalaridan biri ham ma'lum tartibda tuzilgan savollar asosida ma'lumot olish hamda ommaga yetkizishdir. Agar inglizcha intervyu so'zining semantikasiga murojaat qiladigan bo'lsak, u *inter* — o'zaro ta'sir, o'zaro yo'nalish ma'nosini bildirsa, *view*- qarash, fikr so'zidan iborat[3]. Intervyu - bu tuzilgan suhbat bo'lib, unda bir ishtirokchi savol beradi, ikkinchisi esa javob beradi [4].

XX asrning 70-yillarida sovet jurnalistika nazariyasida mustahkam o'rin olgan intervyuning axborot janri sifatidagi qabul qilinishi 90-yillarga kelib esa, alohida katta janr sifatida yuritilgan. Intervyuning asosiy xususiyatlari: 1) turli xil ommaviy axborot vositalarida tarqatish uchun mo'ljallangan maqsadli suhbat, 2) suhbatning ommaviyligi, 3) suhbatdoshning ijtimoiy ahamiyatga ega shaxs, 4) suhbatdoshlar o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri muloqot, 5) savol-javob 6) ikki manzilli - nafaqat suhbat ishtirokchilarini, balki o'quvchi / tomoshabinni xabardor qilish va ta'sir qilish uchun mo'ljallangan[5,118].

Intervyu shakl jihatidan ikki xil — axborot beruvchi va tahliliyga bo'linadi. Axborot beruvchi intervyuda so'rov, surishtiruv natijasida olingan fakt, aniqlangan voqea va hodisa haqida xabar qilinadi hamda bu xabar, axborot kim tomonidan aytilganligi, fakt va ma'lumotlar kimdan olinganligi aytilib, qisqacha tarzda berilishi

mumkin. Bu jihatdan u xabar janriga yaqin turadi. *Tahliliy intervyu* esa suhbat deb ataladi va unda tahliliy publitsistika xususiyatlari asosiy o'rin egallaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, ko'p hollarda intervyu va uning *tahliliy* xususiyatlari birlashib ketishi, ya'ni u orqali ham xabar va ma'lumotlar berilishi va fikr-mulohazalar bildirilishi ham mumkin. O'z tuzilishi jihatidan intervyu ikki xil- intervyu dialog va intervyu monolog shaklida ham bo'lishi mumkin. Intervyu dialogda muxbir va suhbatdosh o'zaro savol-javob qilishadi. Bu savol-javob tayyorlanish jarayonida to'g'ridan-to'g'ri og'zaki ko'rinishda yoki yozma savol-javob tarzida olib boriladi. Respublikamizning mashhur kishilari, fan arboblari, yozuvchilar, san'atkorlar, ishlab chiqarish ilg'orlari, tadbirkorlardan olingan intervyular radio va televideniya turli ruknlar ostida tez-tez berib boriladi. Intervyuning ikkinchi bir ko'rinishi intervyu monolog bolib, unda muxbir bergan birgina savolga suhbatdosh tomonidan berilgan javob o'z aksini topadi.

Intervyuda maqsadlardan biri ustunlik qilishi mumkin yoki har ikkalasi ham nisbatan teng bo'lib taqdim etiladi, bu intervyuning uch turini ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

- informatsion suhbat;
- tahliliy suhbat;
- axborot-tahliliy suhbat.

## **XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, publistika jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi yo'nalish sifatida o'rin tutadi publistik janr turi sifatida intervyular ommaviy axborot vositalarida keng qo'llanuvchi shakllardan biridir. Intervyu turi yoki shakli suhbatdoshlar orasidagi munosabat va respondentga qarab tanlanadi va shu asosida shakllantiriladi. Intervyularda qo'llanayotgan lisoniy birliklar, birikmalar ma'lum maqsad va vazifasiga ko'ra qo'llaniladi. Intervyu janri turli, rang-barang ko'rinishlarga ega bo'lib, ular ijtimoiy hayotni keng va chuqur yoritish, undagi muhim fakt, voqea va hodisalardan o'quvchilarni xabardor qilish, jamoatchilik fikrini uyg'otishga xizmat qiladi. Linguistik jihatdan olib qaraganda, intervyularda qo'llaniladigan til birliklarini foydalanish ko'lamini va maqsadini

to'g'ri anglash muhim. Foydalanish doirasiga ko'ra, suhbat oluvchi va respondent uchun intervyularning turiga qarab munosib shaklni tanlash hamda to'g'ri lug'aviy birliklarni tanlashga xizmat qiladi

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Швец Е.В. Звездное интервью коммуникативно прагматическом аспекте. Автореферат. Калининград, 2008.– 23 с.
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. -Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2001-2006.– 237 с.
3. Merriam Webster Dictionary, Interview, Dictionary definition, Retrieved February 16, 2016
4. Швец Е.В. Специфика развития современного «звездного» интервью. Автореферат.-Калининград, 2007.–117-123 с.
5. Сабирова Л.Р. Особенности публицистических жанров радио.-Тонус: Научно-публицистический альманах КГУ, 2007.–167-173 с.
6. Qozoqboyev T, Xudoyqulov M, Jurnalistikaga kirish. -Toshkent «iqtisod-moliya», 2018. – 354 b.
7. Laura M. “Tarkibli va tarkibsiz intervyu o'rtasidagi farq”. Maqola, 2021–3с.
8. Clayman S. E. Conversation analysis in the news interview. The handbook of conversation analysis Oxford: Wiley-Blackwell, 2012. –630-656 с.